

**ERTA TURMUSH JAMIYATNING DOLZARB MUAMMOSI****Allaniyazova Turgangul Uzaqbaevna**

Qaraqalpog'iston Respublikasi Xojayli

tumani MMTB 19-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda jamiyatimizning dolzarb mavzularidan biri bu erta turmush masalasi keng yoritilgan. Muallif masalaga qanday yondashish haqida fikr bildirib o'tadi.

Kalit so'z: Turmush, nikox, adaptatsiya, oila kodeksi, mas'uliyat.....

"Oila – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir."

ISLOM KARIMOV

Oila bu jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Sog'lom oilada tug'ilib, sog'lom oilada ulg'aygan xar bir shaxsda komil inson bo'lish imkoniyati yuqoridir. Mamlakatimizda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy rivojlangan avlodni shakllantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan erta va qarinoshlar o'rtasidagi nikohlar oqibatida o'limlar qayd etilmoqda, nogiron bolalar tug'ilmoqda. Bu muammoni faqat tibbiyot sohasini rivojlantirish bilangina hal qilib bo'lmaydi. Aholi orasida sog'lom avlod tarbiyasiga oid targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish lozim. Ammo, u yetarli emasdek. Odamlarning tibbiy savodxonligini yanada yuksaltirish kerak deb o'ylayman. Yoshlar orasida, shuningdek, yaqin qarindoshlar o'rtasida oila qurish holatlari ham kamaymayapti. Bu esa, nogiron bolalar tug'ilishini keltirib chiqarmoqda. Bir sinfdoshim ukasining qiziga



uni kelin qilmoqchi ekanini aytganida: “Ammajon, biz o‘g‘lingiz bilan yaqin qarindoshmiz-ku, kelajak avlodni o‘ylamaysizmi? Maktabimizda “Qarindoshlar orasidagi nikohning salbiy oqibatlari” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi. Shundan angladimki, yaqin qarindoshlar turmushi xayrli bo‘lmaydi”, – deb javob beribdi. Afsuski, oramizda ushbu qizchadek mustaqil fikr yuritadigan yoshlar kam. Kattalar esa begonadan ko‘ra o‘zimizniki ma‘qul deb qarindosh-urug‘lar o‘zaro quda bo‘lishadi. Bu borada bir qator olim va mutaxassislar o‘z ixlanishlarini olib borishmoqda. Bunga misol: Xorazm viloyati matbuot va axborot boshqarmasi viloyatdagi “Rivoj”, “Mehrigiyo” “Istiqbolli avlod”, “Taraqqiyot” nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda qator tadbirlar o‘tkazib kelmoqda. Nogiron farzandlari mavjud oilalarga kirib boriladi. Biz kitob sovg‘a qilamiz. Ziyoli inson, shifokor sifatida qarindosh-urug‘lar orasidagi nikohlarning oldini olish borasida qilinayotgan ishlar to‘g‘risida suhbatlar o‘tkaziladi. Urganch tumanidagi oilalardan biriga kirganimizda uch nafar bolasining nogironligiga guvohi bo‘ldik. Opa-ukalarning farzandlari turmush qurgan bo‘lib, bu qarindosh-urug‘chilik oqibatida kasalvand bolalar dunyoga kelgan. Inson ne-ne orzu-umidlar bilan oila quradi. Ezgu niyatlar bilan bir yostiqqa bosh qo‘yadi. Nogiron farzandni dunyoga keltirgan ayolning va buning shohidi bo‘lgan urning hayotini, afsuslarini tasavvur qilish qiyin emas. Birin-ketin uch homilasi tug‘ilmay nobud bo‘ldi. To‘rtinchi farzandi esa nogiron bo‘lib tug‘ildi. Tog‘asining o‘g‘liga turmushga chiqqan bir ayolni taniyman. Bolalarining aqlida, salohiyatda kamchiligi yo‘q. Biroq, ikkala qizining ham ko‘zi yaxshi ko‘rmaydi. Ikkalasi ham bolaligidan ko‘yoynak taqishadi. Yaqinda esa qirq yoshli devdek o‘g‘li onkologik kasallik bilan vafot etdi. Qarindoshlar nikohlangan oilalarda irsiy kasalliklar ham kuchayib ketar ekan. Yana bir oilaga kirdik. Birin-ketin uch homilasi tug‘ilmay nobud bo‘lgan. Ayolning ko‘zlaridagi yoshni to‘xtatib bo‘lmaydi. Bu nadomat va afsuslardan ne foyda. To‘rtinchi farzandi esa nogiron bo‘lib tug‘ildi. Aka-singillar quda bo‘lishgan. Topgan-tutganim begonaga emas, o‘zimizga bo‘lsin, degan niyatda bolalarining taqdirini osongina hal qilib qo‘yaqolishgan.

Mening turmush o‘rtog‘im esa uyimizdagi muhit sabablimi, sabrsizligi va barcha ko‘rgiliklarni yengishga bardoshi yetmaganidanmi, ko‘ngli boshqa yor istab, “o‘tlab



ketgan”, deya davom etadi, yana bir ayol o‘z taqdiridan nolib. Bolalarimiz turmaganidan, nobud bo‘laverganidan boshini qayoqqa qo‘yishni bilmayotgan erimni tushunishga harakat qilaman. Biroq menda nima ayb... Kelin dardini bilib turibdi, biroq kech angladi. Aka dardini hech kimga ayta olmaydi. Singlisining ra’yini qaytara olmaganidan qiz berganidan xunob, farzandining baxtsizligidan onaning dili vayron, kuyib ado bo‘ldi. Qaynota va qaynonasining ham dardi ichida. Yana ham qarindoshlik rishtasini uzmaslik uchun harakat qilishadi. Kelinchak birovlarining nikoh to‘ylarida emin-erkin ishtirok eta olmaydi. O‘ynab-kulib yura olmaydi. Bolasi tushadigan ayolni chimildiriq ilingan xonaga kirishi mumkin emas. Bunday gap ochiq aytilmasada shunga ishora bo‘ladi. Irim qilib ayrimlar, bolasi turmagan kelinga begona va yot ko‘z bilan qarashadi.

Eh odamlar, odamlar! Keling, bir chuqur o‘ylab, bu dunyoda ko‘ngli yarim, dili vayron kishilar bo‘lmasligi, farzandlarimiz sog‘lom va albatta aqlli bo‘lib dunyoga kelishi uchun kurashaylik! Nikoh masalasida yoshlarimiz taqdirini ko‘r-ko‘rona, osongina hal qilib qo‘yishdan o‘zimizni tiyaylik. Qarindoshlar o‘rtasidagi nikoq ikki oila va ikki inson taqdirini vayron qilishini unutmaylik. Shariatda ham, tibbiyotda ham bunday nikohlar mustahkam bo‘lmasligi qayta-qayta uqtiriladi. Zero bu oila atalmish muqaddas dargoxda bolalar kulgusi uni yanayam farovon etadi. Inson hayot davomida o‘zidan munosib iz qoldirishi lozim. Ba’zi insonlar Islom dini qizlarni barvaqt uzatishga chaqiradi, degan noto‘g‘ri tushunchada yuradilar. Bu – asossiz gap. Islomda hali balog‘atga yetmagan, turmushga tayyor bo‘lmagan o‘smir qizlarni uzatish yoki nikohlash lozim, degan gap yo‘q. Hatto balog‘atga yetgan, jismoniy tarafdin turmushga tayyor yigit, agar oilani boqa olmasa, uning uylanishi shart emasligi aytiladi. Ta’kidlash kerakki, hozir shifokorlar 16–17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligi, ho-mila-dorlik va tug‘-uruq holatida qiy-na-lib qolayot-ganini aytib, ularni 19–20 yoshlarida turmushga berishni, yigitlarga 20–22 yoshlarda uylanishni tavsiya qilishmoqda.

Ikki yosh rasmiy nikohdan o‘tish uchun to‘ydan bir oy oldin joylardagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDO) idoralariga ariza topshiradi. Shunda ularga tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun yo‘llanma beriladi. Tibbiy ko‘rik varaqasi to‘ldirilgan holdagina fuqarolarning rasmiy nikohi qayd etiladi. Kelin-kuyovlarni to‘ydan oldin



majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish talabi bejiz qo'yilmagan. Navnihol yigit yoki qiz yashirin tarzda kechayotgan biror dardga chalingan, uni o'zi ham sezmay yurgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Kamqonlik, yurak-qon tomir, buyrak hastaliklarini davolamay

turib homilador bo'lish nogiron bolalar tug'ilishiga olib kelishi hayotda ko'p isbotlangan. Hurmatli ota-onalar, o'zingizni o'ylab farzandlarning guldek umrini xazon qilmang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. " Oila kodeksi". 2009- yil Toshkent
2. Abdullayeva Sh.X. Pedagogik faoliyat va professional kompetentlik: tushunchalar uyg'unligi//Pedagogik mahorat. 2018., № 3. – B.70-73. (19.00.00; № 4)
3. O' Asqarova . "PEDAGOGIKA " 2011- YIL NAMANGAN.